

## INSON PSIXIKASIDAGI MUHABBAT MUAMMOSI

Kuchkorova Ozoda

*Guliston davlat universiteti pedagogika fakulteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi  
talabasi*

O'n sakkiz ming olam yaralibdiki, undagi inson zotiga bo'lgan ehtiyoj, qoniqish, qiziqish va muhabbat hissi paydo bo'lgan.Insonning bir-biriga bo'lgan ishonchi, mehr-muhabbati, uni o'rab turgan olam bilan bo'lgan munosabati- hammasi birga hamohangdir.Inson shunday mavjudotki, barcha narsalarga ko'nikuvchan va o'rganuvchandir. Sabr-bardosh ila o'zgalarga mehr -muhabbat berib, boshqalardan azob-uqubat ko'radi. Umri davomida sevgisi bilan mehr ulashadiyu, lekin evaziga - xiyonat. Sevgi va Nafrat. Albatta, bu ikki tushuncha bir-biriga qarama-qarshi .Qachonki, xiyonat bo'ladi, sevgan insonidan yetarlicha mehr va e'tibor ko'rmasa, undan ko'ngli to'lmasa, shirinso'z eshitmasa, o'rtada sovuqchilik paydo bo'lsa yoki uchinchi shaxs paydo bo'lsa, xiyonat undan so'ng esa Nafrat tuyg'ulari alanga oladi. Sevgi- bu mehr-muhabbat, ishonch, uni boricha qabul qila olish, hurmat, e'tiborda bo'lism hamda doimo uning holidan habardor bo'lism va hamisha uning yonida birga bo'lism.

Nafrat- o'zgaga bo'lgan g'azab, ishonchsizlik, undan bezib qolish, hattoki jirkanch holatlar-,o'y -hayollar.Qanchalar achinarli va zerikarli holatlar- a? Hammasi tabiatni o'rab turgan inson psixikasidagi muhabbat muammosidir. Muhabbat degani bu- biridan kechish degani, bir-birini boricha qabul qilish degani, kim uchundir o'lism degani, muhabbat -kim uchundir yashash degani, muhabbat degani - u baxtli bo'lism uchun nafas olish degani. Xa, albatta inson psixikasidagi muhabbat shunchalik kuchliki, inson irodasini goh sindirish, goh ko'tarib, uni hayot sinovlariga tayyorlovchi buyuk ne'matdir. Muhabbat- shunchalik kuchli tuyg'uki,sevgan insonini ,baxtli bo'lism uchun ham nafas olish deganidir. Uni baxtli bo'lganini ko'rib,ichi-ichidan kuyib ketadiyu, bildirmaydi. Lekin yorini o'ylab u uchun majburlikdan nafas oladi. Insonni ham ma'naviy ham jismoniy qiy Naydigan, uning ongiga ta'sir qiladigan, ruhiyatini sindiradigan, hayotdan bezib qoladigan, umidlarni uzib, hech qanday maqsadsiz yashaydigan holatlarga olib keladigan ilohiy ishqdir. Shunday holatlar bo'ladiki, sevgi insonning puli, uyi, obro'yi ,mansabi yoki uning minib yurgan mashinasini bilan o'Ichanadi. Aksincha, ota-onasini rayiga qarshi chiqolmay o'zgalarga yor bo'lganlar ,o'z sevgisini qurban qilib, uning ismini o'g'liga yo qiziga atab qo'yganlar qancha? Boshqalar bilan turmush qurib , hayotidan ko'ngli to'lmayotganlar qancha?Farzandli bo'lib ,ajrashib ketganlar qancha,farzandlarini tirik yetim qilayotganlar qancha ?

Bu vaziyatga qanday qarash kerak, mana muammo,inson psixikasidagi aynan muhabbatning og'riqli nuqtasi...

Inson qachonlardir ,qilgan xatosini tushunib yetadi ,lekin ming nadomatlar bilan kech bo'ladi.O'sha vaqt qadrlaganni qadriga yetishi ,qizg'onganni asrab-avaylashi

lozim.Hammaga ham emas ,sevib-sevilish.Hammaga ham nasib etavermaydi sevishib turmush qurish!

Inson zoti mukammal bo'lib yaralmagan,hammaning Tangri tomonidan o'lchab berilgan rizqi-nasibasi hamda umri bor. Hayot davom etadi, o'tmish ortda qoldi ,yangi qadam ,yangi marralar kutib turibdi ,hayot hech qachon bir joyda to'xtab qolmaydi,undan qochib ham bo'lmaydi o'zib ham ketolmaydi.Boriga shukur qilib yo'g'iga sabr qilib yashash kerak va albatta doimo izlanishda hamda harakatda bo'lishi lozim.

Guliston davlat universiteti pedagogika fakulteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi Kuchkorova Ozoda

„Talabalik -armon bo'lgan musofirlar“

Talabalik bu- oltin davr! Eng gullagan, eng beg'ubor, sarguzashtlarga boy,unutib bo'lmas xotiralar, birinchi muhabbat hamda jufti halol....Darhaqiqat, talabalar ta'lim tizimida tahsil olar ekan,darsdan bo'sh vaqtleri mehnat faoliyati, yoki qo'shimcha darslar yoki turli xil to'garaklar yoki mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi.Bu jarayonda talabalar goh qiyinchiliklarga, goh xursandchiliklarga duch kelishadi.Lekin bu davrdagi to'siqlarga bardosh berib , mashaqqatlarni yengib o'tishib qilgan mehnatini rohatini ko'rishadi.Ammo, talablalik armon bo'lgan shunday yoshlari borki,o'zga yurtlarda mehnat faoliyatini yuritib, musofir bo'lib yurganlar qancha ...?O'z oilasini boqaman deb, sarson -sargardonlikda, "bolam yaxshimisan, qorning to'qmi"-deb ota-onasi so'rashsa," ha onajon , ha otajon "-deb yolg'on javob berib ,o'zini qurban qilayotganlar qancha ...?

Vatan sog'inchi, ota-onasi sog'inchi, yor-do'stlar, farzandlar sog'inchi hammasi....Xa albatta,inson vujudini larzalarga soluvchi holatlar. Ular ham qachonlardir ,oq ko'ylik, bo'yinbog'da,kostyum -shimlar kiyib, oliy ta'lim muassasida talaba bo'lishni orzu qilishgan,lekin ayrim sabablarga ko'ra, oila boqish uchun, ro'zg'or tebratish uchun yoki aka-ukasi yoki opa-singlisi bo'lsa opasi yoki ukasini o'qisin,men biror kunimni ko'rарман deb o'z jigarlarini o'qitgan, usti -boshini butlagan, talabalik armon bo'lgan musofirlar qancha...?

Ba'zi birlari kech bo'lsa ham sirtqi ta'limda tahsil olib,o'qish faoliyatini davom ettirmoqda.Lekin ushbu jarayonga yetib kelguncha ,ular o'zga yurtlarda jismoniy ,ruhiy zo'riqishga uchrab, sog'lig'i uchun zarar bo'lgan qahraton qish,jazirama issiqlarga ,ochlikka hattoki, musht kaltaklarga ham dosh berib chidab kelishgan.Stress, depressiya, agressiya,yon atrofdagilarga nisbatan nafrat,g'azab tuyg'ulari avj olib ,asabiy bo'lib qolishadi.Bu holat o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, hayotga bo'lgan umid,kelajakka bo'lgan ishonch,o'ziga bo'lgan ishtiyoq tuyg'ulari so'nadi.Oila qurish ,o'zidan surriyod qoldirish ,qo'lidan hech qanday na hunari, na kasbi bor yigitga, "kim ham menday musofirga qizini berarkan " -deb tushkunlikka tushib qolishadi.Allohga bo'lgan ishonch ,hayotga bo'lgan muhabbat so'nib qolmasligi kerak.Doimo ,harakatda,izlanishda bo'lishi kerak.Faqat olg'a qadam bosish, ortga qaramaslik,o'tmish bilan yashamaslik zarur.Har bir otayotgan yorug' tong uchun ,har bir olayotgan nafasi uchun, har lahma urayotgan yuragi uchun Tangriga shukrona aytishi kerak.Alloh Taollo suygan bandasiga sinov, dard berar ekan va sabr ila

,uning ortidan albatta katta mukofoti berilar ekan. Hayot davom etadi, hech qachon to'xtamaydi, faqatgina undan ibrat olishimiz ,xolisona qaror qabul qilishimiz kerakdir.